

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



№1 - SON

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621

2026-YIL, YANVAR





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbiarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU, “Marketing” kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NamDTU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU “Marketing” kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU, Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulnaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU, “Marketing” kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU, Departament boshlig'i;

Musheva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI, “Marketing” kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU, “Innovatsion menejment” kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU, “Axborot texnologiyalari” kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., NamDTU, “Menejment” kafedrasini mudiri, dotsenti;

Fayzullayev Jaylonbek Sultonovich, DSc., TDIU, “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori;

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori;

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU, Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti O'quv ishlari bo'yicha prorektor;

Abduvaxidov Abdumalik Maxkamovich, i.f.d., TDIU, “Turizm va servis” kafedrasini professori;

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasini professori

Tuychiyev Alisher Jurayevich, Alfraganus University “Iqtisodiyot” fakulteti dekani, professor;

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU, “Yashil” iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU, Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU, Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Boltaev Umidjon Talant o'g'li, i.f.f.d., PhD., Toshkent arxitektura qurilish instituti “Iqtisodiyot va ko'chmas mulkni boshqarish” kafedrasini dotsenti;

Bayxonov Bahodirjon Tursunbayevich, i.f.d., DSc, NamDTU, “Menejment” kafedrasini dotsenti;

Maxmudov Toxirjon Olimjonovich, PhD., NamDTU, “Marketing” kafedrasini dotsenti;

Pardayev Sherzod Xolmurodovich, i.f.f.d., PhD., TDIU, “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsenti;

Beknazarov Behzod Baxtiyor o'g'li, PhD., Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrasini dotsent v.b.

Abduvaxidov Behzod xxx, PhD., Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini o'qituvchisi;

Rajabova Moxichexra Abduxolikovna, PhD., Buxoro davlat universiteti marketing va menejment kafedrasini o'qituvchisi.

Elektron nashr 597 sahifa. E'lon qilishga 2026-yil 31-yanvarda ruxsat etildi

MUNDARIJA

YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLAR VA O'ZINI-O'ZI BAND QILGAN SHAXSLAR SEGMENTI UCHUN SHAFFOF RAQAMLI TO'LOV TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH	8
Isamuxamedov Anvar Sadiqovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BARQAROR RAQOBAT USTUNLIKLARINI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA STRATEGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	15
Ismailova Nilufar Sabitdjanovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH RESURSLARINI STRATEGIK BOSHQARISH	27
Kazakov Olim Sabirovich	
ЭТИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ СБОРА ПОТРЕБИТЕЛЬСКИХ ДАННЫХ В МЕЖДУНАРОДНЫХ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ.....	35
Адылова Зульфия Джавдатовна, Юлчиева Мадинабону Отабек кизи	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SIRKULYAR IQTISOD TAMOYILLARIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY DAVLATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	48
Nuritdinov Ramziddin	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ НЕФТЕГАЗОВЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ	60
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ НЕРАВЕНСТВО: ПРИЧИНЫ И МЕРЫ ПРЕОДОЛЕНИЯ	74
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
IJTIMOY-IQTISODIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	83
Muxamedova Aziza Ravshanovna	
INTELLIGENT INTRUSION DETECTION: LEVERAGING REINFORCEMENT LEARNING FOR ECONOMIC SECURITY AGAINST DDOS THREATS.....	90
Bekov Sanjar Nigmandjanovich	
RAQAMLI MARKETINGNING YOSHLAR SEGMENTIDA RIVOJLANISHI	101
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna, Ergashov Abdullo Ramazon o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA BOZOR AXBOROTLARIDAN FOYDALANISH VA AVTOMATIK TAHLIL QILISH TIZIMLARINI JORIY ETISH.....	106
Yo'ldoshev Nodirbek Ne'matjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KAMBAG'ALLIK DARAJASINING O'ZGARISH DINAMIKASI TAHLILI	114
Mayliyeva Sadoqat Safayozovna	

TOWARDS AN INTEGRATIVE MODEL OF THE COUNTRY IMAGE	121
Duschanov Alisher Sherzod ugli	
BUXORO VILOYATIDA MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI TAHLILI VA MARKETING MUAMMOLARI	133
Jumayeva Zamira Bo'stonovna	
KORXONALARNING YASHIL MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISHGA NAZARIY VA KONSEPTUAL YONDASHUVLARI	140
Sapayev Axmed Durdibayevich	
SANOAT KORXONALARINING UZOQ MUDDATLI RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING YONDASHUVLARI	149
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
RAQOBAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI VA INSTITUTIONAL MUAMMOLAR	159
Akbarov Jasur Ikromjon o'g'li	
THE ECONOMIC AND ENVIRONMENTAL EFFICIENCY OF AGRIVOLTAIC SYSTEMS IN UZBEKISTAN'S AGRICULTURAL SECTOR	167
Amonov Sardor Zamon o'g'li	
EVALUATING RETURN ON MARKETING INVESTMENT IN B2B DISTRIBUTION	175
Jamoliddinov Fakhriyor Shodiyor o'g'li	
THE ROLE OF STRATEGIC MANAGEMENT IN ENHANCING TOURISM DESTINATION COMPETITIVENESS	184
Choriyev Farrux Xamroyevich	
TUROPATORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ZAMONAVIY ILMIY YONDASHUVLARI	194
Toshev Akmal Salimovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AGRAR BOZOR TAHLILI.....	206
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
JAHON ZARGARLIK MAHSULOTLARI BOZORIGA KIRISHNING MARKETING STRATEGIYALARI	214
Azizova Roxila Baxodir qizi	
FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINI OPTIMALLASHTIRISH ASOSIDA IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH	223
Qodirov Zohidjon Eralievich	
SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARI SOHASI BARQARORLIGINING HUDUDIIY VA DINAMIK TAHLILI	229
Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAXSULOTLARI SAVDOSIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH.....	236
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ	243
Нуруллаева Шахноза Тохтасиновна, Saydullayeva Saodat Abdumajitovna	

O'ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORIDA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY CHAKANA SAVDO TRANSFORMATSIYALARI	250
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	257
Gafurov Anvar Bazarbayevich	
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA XIZMATLAR SOHASINI TA'SIRINI OSHIRISH	264
Achilova Firuza Kurbanovna	
IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK BILAN BOG'LIQ XAVF-XATARLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	274
Shamurotov Nodirbek Bakbergan o'g'li	
OZIQ-OVQAT SANOATI RAQOBATBARDOSHLIGINI INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH	280
Hamroyev Bobir Shoyimovich	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL TURIZMNI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	289
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
ЭКОНОМИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКЕ.....	299
Ниязметова Ёқутхон Ботир қизи	
QURILISHDA LOYIHA BOSHQARUVI STRATEGIYASINING ILMIY-USLUBIY MUAMMOLARI.....	308
Pulatov Shaxron Axmedovich	
QURILISH KORXONALARINING TASHKILY TUZILMALARINING OMILLAR TA'SIRIDA SHAKILLANISHI.....	315
Raximova Nilufar Abduazizovna	
O'ZBEKISTON EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN KORXONALARINING MARKETING KOMPLEKSINI MINTAQALAR BOZORLARIGA MOSLASHTIRISH.....	323
Axmedov Ikrom Akramovich	
MARKETING TAMOIYILLARI ASOSIDA MIJOZ VA BANK MUNOSABATLARINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	338
Temirova Sevara Baxodirovna	
TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR.....	345
Muminova Durdona Saydikadirovna	
TIJORAT BANKLARI BRENDING STRATEGIYASINING BANK IMIJIGA TA'SIRI.....	355
Mirzajonova Maftunaxon Jaxongir qizi	

УПРАВЛЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКИМИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯМИ НА РЫНКЕ ТРУДА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ГРАВИТАЦИОННОЙ МОДЕЛИ.....	364
Назаров Дмитрий Михайлович, Джурабаев Отабек Джурабаевич	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARNING MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI.....	380
Uzakova Umida Ruziyevna	
ВЛИЯНИЕ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ НА МАЛЫЙ БИЗНЕС	388
Зокирова Фарангиз	
KIMYO SANOATI KORXONALARI FAOLIYATIDA IQTISODIY SALOHİYAT TUSHUNCHASINING AHAMIYATI.....	395
Vaxobov Shohjahon Valiyevich	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNING LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH YO‘LLARI	402
Muxiddinov Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li	
KLASTER YONDASHUVI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	412
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
QURILISH SANOATIDA INNOVATSION FAOLIYATNI STRATEGIK BOSHQARISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	420
Ortiqxo‘jayeva Yulduz Azatovna	
TIJORAT BANKLARI MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA RISK-MENEJMENTDAN FOYDALANISHNING USLUBIY JIHATLARI	428
Madaminov Bekzod Allayarovich	
BANK RISK-MENEJMENTI TIZIMIDA SUN‘IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	442
Madaminov Bekzod Allayarovich	
XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA XALQARO MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	453
Abduvoxidov Behzod	
TIKUV – TRIKOTAJ KORXONALARI MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA USULLARIDAN FOYDALANISH	460
Jalilov Jamshid G‘anijonovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALARI	472
Kaxramonov Xurshidjon Shuhrat o‘g‘li	
ADVANCING UZBEKISTAN’S ENERGY SECTOR THROUGH PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIPS: KEY REFORMS, IMPLEMENTED PROJECTS, AND SUSTAINABILITY PROSPECTS	481
Juraev Javohir Tulagan ugli	

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ МЕДИЦИНСКОГО ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ СО СПОСОБОМ КЛАСТЕРИЗАЦИИ МЕДИЦИНСКИХ УЧРЕЖДЕНИЙ	489
Юсупова Мехрибон Уктамовна	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH	498
Xushvaqtoev Shuhrat Abduraufovich	
FRANCHAYZING SUBYEKTLARI O‘RTASIDAGI KOOPERATSIYANI BAHOLASHNING KO‘P MEZONLI METODIKASINI ISHLAB CHIQRISH VA SAMARADORLIKNI ANIQLASH	509
Xodjayev Anvar Rasulovich	
ISTE‘MOLCHILARNING BRENDGA SODIQLIGI VA UNING KORXONA DAROMADIGA TA‘SIRINI BAHOLASH.....	523
Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich, Yuldasheva Zuhrajon Urazboy qizi	
STRATEGIK USULLAR ORQALI MENEJMENT SIFATINI UZLUKSIZ TAKOMILLASHTIRISH	529
Djabriyev Akbarali Normurodovich, Muxammadiyev O‘tkir Axmedovich, Ravshanbekova Madinabonu	
MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIDA YALPI ICHKI MAHSULOTNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDAGI ROLI VA AHAMIYATI.....	541
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA XODIMLAR BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KPI TIZIMINING AHAMIYATI.....	552
Maksudov Zuxriddin Ziyovitdinovich	
MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING OPTIMAL TUZILMASINI SHAKLLANTIRISH VA MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	561
G‘aymatova Dilafrō‘z G‘ofurjonovna	
SANOAT KORXONALARIDA TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMI ASOSIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	572
Esheva Sarvinoz Axmatovna	
TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISHNI BOSHQARISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH.....	583
Shuxratullayev Elmurod Dilmurod o‘g‘li	

MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING OPTIMAL TUZILMASINI SHAKLLANTIRISH VA MODELLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

G'aymatova Dilafro'z G'ofurjonovna

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish va uni modellashtirish masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiy tizimining tarkibiy nisbatlari, tarmoqlararo muvozanati hamda resurslar taqsimotining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Optimal tuzilmani aniqlash jarayonida ekonometrik modellar, ko'p omilli regressiya tahlili, input-output modeli va optimallashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar investitsiya, mehnat resurslari, innovatsiya va infratuzilma omillari mintaqaviy tarkibiy o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatganini tasdiqladi. Tadqiqot yakunida mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi diversifikatsiya darajasini oshirish, yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni kengaytirish hamda tarkibiy nisbatlarni ilmiy asosda muvofiqlashtirish orqali ta'minlangani asoslab berildi.

Kalit so'zlar: mintaqaviy iqtisodiyot, optimal tuzilma, strukturaviy transformatsiya, modellashtirish, ko'p omilli regressiya, input-output modeli, optimallashtirish, prognozlash, diversifikatsiya, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В статье научно проанализирована проблема формирования оптимальной структуры региональной экономики и её моделирования. В ходе исследования структурные пропорции региональной экономической системы, межотраслевой баланс и влияние распределения ресурсов на экономическую эффективность были изучены на основе комплексного подхода. Для определения оптимальной структуры были использованы ekonometricheskie modeli, mnogoфакторный регрессионный анализ, модель «затраты–выпуск» и методы оптимизации. Полученные результаты подтвердили, что инвестиции, трудовые ресурсы, инновации и инфраструктура оказали значительное влияние на структурные изменения в регионе. В заключение было обосновано, что устойчивое развитие региональной экономики обеспечивалось за счёт повышения уровня диверсификации, расширения отраслей с высокой добавленной стоимостью и научно обоснованной координации структурных пропорций.

Ключевые слова: региональная экономика, оптимальная структура, структурная трансформация, моделирование, многофакторная регрессия, модель «затраты–выпуск», оптимизация, прогнозирование, диверсификация, экономическая эффективность, инвестиции, устойчивое развитие.

Abstract

The article scientifically analyzed the issue of forming and modeling the optimal structure of the regional economy. The study examined the structural proportions of

the regional economic system, intersectoral balance, and the impact of resource allocation on economic efficiency based on an integrated approach. Econometric models, multifactor regression analysis, the input-output model, and optimization methods were applied to determine the optimal structure. The findings confirmed that investment, labor resources, innovation, and infrastructure significantly influenced regional structural changes. It was substantiated that sustainable regional development was ensured through increasing diversification, expanding high value-added sectors, and scientifically grounded coordination of structural proportions.

Keywords: regional economy, optimal structure, structural transformation, modeling, multifactor regression, input-output model, optimization, forecasting, diversification, economic efficiency, investment, sustainable development.

KIRISH

Mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish masalasi zamonaviy iqtisodiy nazariya va amaliy siyosatning markaziy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy makonda texnologik siljishlar, raqamli transformatsiya va ishlab chiqarishning qayta hududlashuvi jarayonlari mintaqalarning tarkibiy moslashuvchanligini keskin darajada dolzarb masalaga aylantirdi. Strukturaviy nomutanosibliklar ishlab chiqarish omillarining samarasiz taqsimlanishiga, kapital unumdorligining pasayishiga hamda uzoq muddatli iqtisodiy oʻsish surʼatlarining sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Shu sababli mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini aniqlash nafaqat tarmoqlararo nisbatlarni muvozanatlashtirish, balki iqtisodiy tizimning ichki barqarorligini taʼminlashning fundamental sharti sifatida qaraladi. Zamonaviy modellashtirish yondashuvlari – input-output tahlili, koʻp omilli ekonometrik modellar, optimallashtirish algoritmlari va prognozlash metodlari – iqtisodiy tizimning strukturaviy parametrlarini miqdoriy baholash hamda ularning oʻzaro taʼsir mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi.

World Bank tadqiqotlarida strukturaviy transformatsiya iqtisodiy rivojlanishning markaziy determinanti sifatida baholanib, sanoat va xizmatlar sektorining optimal nisbatlari iqtisodiy barqarorlik va unumdorlik oʻsishini taʼminlashi qayd etiladi [1]. UNIDO hisobotlarida sanoatni diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni kengaytirish hamda innovatsion salohiyatni oshirish mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tarkibini shakllantirishning asosiy sharti sifatida koʻrsatiladi [2]. OECD tadqiqotlari esa mintaqaviy iqtisodiy tuzilmani modellashtirishda inson kapitali sifati, infratuzilma rivojlanishi va institutsional muhitning integrallashgan tahlili zarurligini asoslaydi [3]. Ushbu ilmiy xulosalar mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirishda koʻp omilli va tizimli modellashtirish metodologiyasining ustuvorligini tasdiqlaydi.

Milliy miqyosda ham iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiya qilish va hududiy muvozanatni taʼminlash ustuvor strategik vazifa sifatida belgilangan. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillardagi Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF–60-son Farmonida hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, yuqori qoʻshilgan qiymatli ishlab chiqarish ulushini oshirish va investitsiya samaradorligini kuchaytirish asosiy yoʻnalish sifatida

ko'rsatib o'tilgan [4]. BMT tomonidan qabul qilingan Barqaror rivojlanish kun tartibi esa iqtisodiy tuzilmani inklyuziv, ekologik barqaror va innovatsion model asosida shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi [5]. Shu bois mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish va modellashtirishning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish nazariy jihatdan asosli, amaliy jihatdan esa strategik ahamiyatga ega ilmiy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish va modellashtirish masalasi iqtisodiy rivojlanish nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Strukturaviy transformatsiya konsepsiyasiga ko'ra, iqtisodiy tizimning optimal holati ishlab chiqarish omillarining yuqori samaradorlikka ega tarmoqlarga qayta taqsimlanishi va tarmoqlararo nisbatlarning muvozanatlashuvi orqali ta'minlanadi. Lewis tomonidan ishlab chiqilgan ikki sektorli modelda an'anaviy sektordan sanoat sektoriga mehnat oqimi iqtisodiy o'sishning boshlang'ich bosqichini belgilovchi omil sifatida talqin qilinadi [6]. Ushbu nazariy yondashuv mintaqaviy darajada sanoatlashtirish jarayonini optimal tuzilma shakllanishining asosiy mexanizmi sifatida tushuntiradi, biroq model texnologik yangilanish va institutsional omillarning rolini cheklangan darajada yoritadi.

Kuznets iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli dinamikasini empirik tahlil qilib, daromadlar o'sishi bilan bir qatorda iqtisodiy tuzilmaning sanoat va xizmatlar sektori foydasiga o'zgarishini aniqlagan [7]. Uning konsepsiyasiga ko'ra, optimal tuzilma vaqt o'tishi bilan iqtisodiy tizimning murakkablashuvi va diversifikatsiyasi natijasida shakllanadi. Chenery va Syrquin esa rivojlanish bosqichlariga mos ravishda tarmoqlararo nisbatlarning o'zgarishini modellashtirib, strukturaviy transformatsiyani miqdoriy baholash usullarini taklif etgan [8]. Ularning tadqiqotlari optimal nisbatlarni aniqlashda iqtisodiy rivojlanish darajasi va investitsiya oqimlari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslaydi.

Pasinetti strukturaviy dinamik nazariyasida talab tarkibining o'zgarishi va texnologik taraqqiyot iqtisodiy tizimning ichki muvozanatini qayta shakllantirishini ko'rsatadi [9]. Unga ko'ra, optimal tuzilma statik emas, balki dinamik jarayon bo'lib, uzoq muddatli makrodinamik muvozanat orqali aniqlanadi. Leontiefning input-output modeli esa tarmoqlararo bog'liqlikni matematik ifodalash orqali iqtisodiy tizimning optimal ishlab chiqarish kombinatsiyasini aniqlash imkonini beradi [10]. Mazkur model mintaqaviy iqtisodiyotda resurslarning optimal taqsimotini aniqlashda fundamental vosita sifatida qo'llaniladi va iqtisodiy tuzilmaning ichki proporsiyalarini miqdoriy baholash imkonini yaratadi.

Porterning raqobat ustunligi nazariyasi mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirishda klasterlashuv va ixtisoslashuvning muhimligini ta'kidlaydi [11]. Klaster modeli hududiy raqobatbardoshlikni oshirish orqali samaradorlikni kuchaytiradi, biroq ortiqcha ixtisoslashuv diversifikatsiya darajasini pasaytirib, iqtisodiy xavflarni oshirishi mumkin. Aghion va Howitt tomonidan ishlab chiqilgan endogen o'sish modeli innovatsiyani iqtisodiy tuzilmaning optimal shakllanishida hal qiluvchi omil sifatida talqin qiladi [12]. Ularning yondashuvida texnologik yangilanish

va ilmiy-tadqiqot faoliyati yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarni kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Hausmann va Hidalgo iqtisodiy murakkablik nazariyasini ilgari surib, eksport savatining diversifikatsiyasi va mahsulot murakkabligi optimal iqtisodiy tuzilmaning indikatorlari sifatida qaralishini taklif etadi [13]. Ularning tadqiqotlari iqtisodiy murakkablik indeksi yuqori bo'lgan hududlarda o'sish sur'atlari barqarorroq shakllanishini ko'rsatadi. Rodrik sanoat siyosatining selektiv yondashuvi orqali yuqori samarali tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash optimal tuzilmani shakllantirishga xizmat qilishini asoslaydi [14]. Imbs va Wacziarg esa rivojlanishning dastlabki bosqichida diversifikatsiya, keyingi bosqichlarda esa qayta ixtisoslashuv jarayoni yuz berishini empirik jihatdan isbotlaydi [15].

Mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish ko'p omilli, dinamik va institutsional jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi. Nazariy yondashuvlar sanoatlashtirish, diversifikatsiya va innovatsiyani asosiy determinant sifatida ko'rsatsa, matematik va ekonometrik modellar optimal nisbatlarni miqdoriy aniqlash imkonini beradi. Shu bois zamonaviy yondashuvlar integrallashgan metodologiyani – strukturaviy tahlil, input-output modellashtirish, ko'p omilli regressiya va optimallashtirish usullarini birlashtirishni talab etadi. Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishini ta'minlash uchun optimal tuzilmani aniqlashda nazariy va empirik metodlarni uyg'unlashtirish ilmiy jihatdan asosli va amaliy jihatdan zarur yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirish va modellashtirish jarayoni tizimli va ko'p bosqichli metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab mintqa iqtisodiy tizimining tarkibiy parametrlari – sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi, investitsiyalar, eksport va bandlik ko'rsatkichlari – dinamik qatorlar asosida umumlashtirildi. Strukturaviy nisbatlarni baholash uchun tarmoqlar ulushi, diversifikatsiya koeffitsiyenti, konsentratsiya indeksi va tarmoqlararo nisbatlar ko'rsatkichlari hisoblandi. Keyingi bosqichda input-output yondashuvi asosida iqtisodiy tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va multiplikativ ta'sirlar aniqlanib, resurslar taqsimotining optimal kombinatsiyasi baholandi.

Empirik baholash bosqichida ko'p omilli ekonometrik model qo'llanilib, mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlariga ta'sir etuvchi omillar regressiya tahlili orqali aniqlashtirildi. Ko'rsatkichlar bazis yilga nisbatan normallashtirildi va vaqt qatorlari asosida trend hamda ssenariy prognozlash amalga oshirildi. Model parametrlarining statistik ahamiyatliliigi va barqarorligi determinatsiya koeffitsiyenti, elastiklik ko'rsatkichlari hamda diagnostik testlar orqali tekshirildi. Shuningdek, optimallashtirish yondashuvi asosida tarmoqlararo nisbatlarning iqtisodiy o'sish va barqarorlik mezonlariga mos keluvchi variantlari aniqlanib, prognozlash modeli orqali istiqboldagi rivojlanish ssenariylari ishlab chiqildi

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati va uning tumanlari kesimida 2017–2024 yillar oraligʻidagi ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlar asosida mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy dinamikasi tizimli ravishda umumlashtirildi. Empirik tahlil uchta kompleks jadval asosida shakllantirilib, unda sanoat mahsuloti hajmi, yalpi hududiy mahsulot, asosiy kapitalga investitsiyalar hamda tumanlar kesimidagi ishlab chiqarish koʻrsatkichlari oʻzaro bogʻliqlikda keltiriladi. Hisoblash jarayonida koʻrsatkichlar bazis yilga nisbatan normallashtirilib, strukturaviy ulushlar va nisbatlar aniqlanadi. Shuningdek, integrallashgan baholash uchun indekslash usuli qoʻllanilib, umumlashtiruvchi koʻrsatkich arifmetik oʻrtacha yoki ogʻirlik koeffitsiyentlar asosida hisoblanadi. Bu yondashuv mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasidagi oʻzgarishlarni miqdoriy jihatdan ifodalash imkonini beradi.

Boʻlimda foydalanilgan maʼlumotlar rasmiy statistik manbalarga asoslanib, vaqt qatorlari dinamikasini qamrab oladi. Koʻrsatkichlar amaldagi narxlarda ifodalangan boʻlib, ularning oʻzgarishi mintaqaning sanoat rivojlanishi, investitsiya faolligi va hududiy tafovutlar bilan uzviy bogʻliq holda koʻrib chiqiladi. Ushbu empirik baza mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tarkibini shakllantirish, resurslar taqsimotini baholash va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash uchun metodologik asos yaratadi.

1-jadval.

Andijon viloyatining mintaqa sanoat tuzilmasi va iqtisodiy oʻsish bilan bogʻliq asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari (mlrd soʻm)¹

Yil	Yalpi hududiy mahsulot	Sanoat mahsuloti	Asosiy kapitalga investitsiyalar	Qishloq, oʻrmon va baliqchilik
2017	22 904,2	13 269,8	2 986,0	15 950,0
2018	31 623,2	27 454,7	4 711,9	20 183,9
2019	39 663,7	33 122,3	7 452,1	24 314,9
2020	44 097,9	36 376,5	9 622,6	27 056,8
2021	50 817,3	35 935,3	11 176,6	31 582,5
2022	65 233,4	54 352,5	14 339,8	37 246,9
2023	80 337,5	73 767,1	18 639,1	42 942,4
2024	93 026,3	90 626,6	28 668,0	46 366,4
2025	107 717,6	107 885,0	32 909,9	53 525,8

2017–2024 yillarda Andijon viloyatida yalpi hududiy mahsulot (YHM) 22 904,2 mlrd soʻmdan 93 026,3 mlrd soʻmga yetib, 4,1 baravarga oshgan. Shu davrda sanoat mahsuloti hajmi 13 269,8 mlrd soʻmdan 90 626,6 mlrd soʻmga koʻtarilib, 6,8 baravarlik oʻsishni namoyon etgan. Bu sanoat oʻsish surʼatlari YHM oʻsish surʼatlaridan yuqori boʻlganini anglatadi va mintaqa iqtisodiyotida sanoatning tarkibiy roli kuchayganini koʻrsatadi. 2017 yilda sanoatning YHMdagi ulushi taxminan 58 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2024 yilga kelib bu koʻrsatkich 97 foizga yaqinlashgan. Bu natija mintaqa iqtisodiy oʻsishining asosiy drayveri sanoat sektori ekanini va iqtisodiy tuzilma sanoatlashtirish yoʻnalishida transformatsiyalanayotganini tasdiqlaydi.

¹ Manba: Andijon viloyati iqtisodiyot va moliya boshqarmasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi

Asosiy kapitalga investitsiyalar dinamikasi sanoat o'sishi bilan bevosita uyg'unlashgan. 2017 yilda investitsiyalar hajmi 2 986,0 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yilda 28 668,0 mlrd so'mga yetib, 9,6 baravarga oshgan. Ayniqsa, 2022–2024 yillarda investitsiyalarning keskin ortishi (14 339,8 mlrd so'mdan 28 668,0 mlrd so'mga) sanoat ishlab chiqarishining ham tezlashgan o'sishiga to'g'ri keladi. Bu kapital qo'yilmalarning sanoat kengayishiga yuqori multiplikativ ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Investitsiya faolligining kuchayishi yangi ishlab chiqarish quvvatlari, texnologik modernizatsiya va mahsulot nomenklaturasining kengayishiga zamin yaratgan.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi ko'rsatkichlari ham 2017 yildagi 15 950,0 mlrd so'mdan 2024 yilda 46 366,4 mlrd so'mga yetib, 2,9 baravarga oshgan bo'lsa-da, uning o'sish sur'ati sanoatga nisbatan pastroq shakllangan. Bu mintaqa iqtisodiyotida strukturaviy siljishlar sanoat sektori foydasiga yuz berayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoatning tez sur'atlarda kengayishi va investitsiya hajmlarining yuqori darajada oshishi iqtisodiy o'sishning intensiv modeliga o'tilayotganini bildiradi. Biroq uzoq muddatli barqarorlik nuqtai nazaridan sanoat tarkibining ichki diversifikatsiyasi va yuqori texnologiyali segmentlar ulushini kengaytirish mintaqa iqtisodiy o'sishining sifat jihatidan mustahkamlanishi uchun hal qiluvchi omil bo'lib qolmoqda.

2-jadval.

Andijon viloyatida sanoat mahsuloti hajmi tarkibi (foizda)¹

Ko'rsatkichlar	Yillar							
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Tog'-kon sanoati	0,8	0,4	0,6	0,3	0,5	0,4	1,0	1,6
Ishlab chiqarish sanoati	96,3	97,9	97,6	98,0	97,6	97,9	98,1	97,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	11,5	6,2	7,0	7,6	7,2	5,7	3,5	5,6
To'qimachilik	10,5	8,2	7,5	9,0	14,5	12,0	10,7	10,0
Kiyim ishlab chiqarish	9,4	5,8	5,4	6,1	10,4	10,7	10,5	12,6
Kimyo mahsulotlari	1,2	1,0	1,4	1,4	0,9	0,8	1,1	1,2
Rezina va plastmassa	0,4	0,3	0,3	0,7	0,7	0,7	0,7	0,8
Boshqa nometall mineral mahsulotlar	1,5	1,3	0,8	1,2	1,5	1,7	0,9	1,6
Elektr uskunalari	2,2	1,5	1,6	1,4	1,5	0,9	0,9	1,4

2017–2024 yillar davomida Andijon viloyatida sanoat mahsuloti hajmi 13 269,8 mlrd so'mdan 90 626,6 mlrd so'mga yetib, nominal ifodada 6,8 baravarga oshgan. Mazkur davrda o'rtacha yillik o'sish sur'ati 31–32 foiz atrofida shakllangan bo'lib, bu respublika sanoat o'sish sur'atlaridan yuqori dinamikani anglatadi. 2020-2021 yillardagi nisbiy sekinlashuv (36 376,5 mlrd so'mdan 35 935,3 mlrd so'mga pasayish) pandemik cheklovlar bilan izohlanadi, biroq 2022 yildan boshlab sanoat hajmining 54 352,5 mlrd so'mga, 2023 yilda 73 767,1 mlrd so'mga va 2024 yilda 90 626,6 mlrd so'mga yetishi sanoat tarkibida intensiv kengayish bosqichi boshlanganini ko'rsatadi. Bu jarayon tarkibiy transformatsiyaning faol fazasiga o'tilganidan dalolat beradi.

¹ Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Tarkibiy jihatdan ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 2017 yildagi 96,3 foizdan 2024 yilda 97 foiz atrofida saqlanib qolgan bo'lib, sanoatning yuqori konsentratsiyalashgan modelini ifodalaydi. Ayniqsa, to'qimachilik va kiyim ishlab chiqarish tarmoqlari keskin o'sish sur'atlarini namoyon qilgan: to'qimachilik 1 387,5 mlrd so'mdan 9 026,8 mlrd so'mga (6,5 baravar), kiyim ishlab chiqarish esa 1 247,5 mlrd so'mdan 11 460,9 mlrd so'mga (9 baravar) oshgan. 2024 yilda ushbu ikki tarmoq birgalikda jami sanoat hajmining qariyb 22–23 foizini tashkil etgan. Bu viloyat sanoatining eksportga yo'naltirilgan va mehnat sig'imi yuqori bo'lgan model asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Biroq yuqori texnologiyali segment – kompyuter va elektronika ishlab chiqarish – 2024 yilda atigi 2,3 mlrd so'mni tashkil etib, strukturaviy murakkablik darajasi pastligicha qolayotganini bildiradi.

Diversifikatsiya nuqtai nazaridan, tog'-kon sanoatining 103,1 mlrd so'mdan 1 492,5 mlrd so'mga oshishi (14,5 baravar) sanoat tarkibida yangi o'sish nuqtalari shakllanayotganini anglatadi, ammo uning ulushi hali 2 foizga ham yetmaydi. Kimyo sanoati 164,4 mlrd so'mdan 1 066,7 mlrd so'mga (6,5 baravar), rezina va plastmassa mahsulotlari 54,2 mlrd so'mdan 754,8 mlrd so'mga (13 baravar) oshgani sanoatning ichki kooperatsiya zanjirlari kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, sanoat tarkibining yuqori darajada tekstilga ixtisoslashganligi konsentratsiya darajasini yuqori saqlab turmoqda, bu esa uzoq muddatli barqarorlik uchun risk omili bo'lishi mumkin. Umuman olganda, 2017–2024 yillarda Andijon viloyatida sanoat o'sishi intensiv va tezkor bo'lgan bo'lsa-da, tarkibiy murakkablikni oshirish va yuqori texnologiyali tarmoqlar ulushini kengaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

3-jadval.

**Andijon viloyati tumanlar kesimida iste'mol mollari ishlab chiqarish
(amaldagi narxlarda, mlrd.so'm)¹**

Hudud	Yillar						
	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
Andijon viloyati	9 853,1	21 385,4	26 179,4	27 490,4	25 823,9	36 563,5	51 506,1
Andijon shahri	1 005,8	1 112,9	1 210,9	1 501,3	1 877,7	1 097,1	1 382,0
Xonobod shahri	127,9	104,9	128,4	109,6	464,8	306,2	444,8
Oltinko'l	302,3	390,1	400,6	532,0	655,5	266,1	894,3
Andijon tumani	345,8	458,5	508,2	627,2	746,0	744,7	732,7
Baliqchi	252,6	273,7	238,1	305,4	516,7	283,2	359,0
Bo'ston	66,8	105,2	266,1	170,3	188,5	215,5	178,4
Buloqboshi	167,8	182,3	250,8	294,7	278,2	272,7	303,2
Jalaquduq	186,5	248,9	385,1	350,3	614,0	734,5	817,1
Izboskan	175,3	285,2	242,8	721,4	524,1	647,6	697,0
Ulug'nor	47,6	86,1	154,6	141,8	246,2	290,7	294,6
Qo'rg'on-tepa	214,8	278,5	489,5	521,1	495,1	368,9	715,5
Asaka	6 043,2	16 703,4	20 251,2	20 156,4	16 844,0	28 248,1	41 001,8
Marhamat	149,2	196,9	284,4	378,5	330,8	248,1	259,8
Shahrixon	372,8	369,8	558,3	575,4	646,8	661,1	353,3
Paxtaobod	118,9	132,8	260,9	334,2	385,9	314,2	589,1
Xo'jaobod	275,8	456,2	549,5	770,5	1 009,5	1 864,9	2 483,7

¹ Manba: Andijon viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

2017–2023 yillarda Andijon viloyatida iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi 9 853,1 mlrd soʻmdan 51 506,1 mlrd soʻmga yetib, 41 653,0 mlrd soʻmlik mutlaq oʻsish qayd etildi va hajm 5,2 baravarga oshdi. Oʻrtacha yillik oʻsish surʼati 31–32 foiz atrofida shakllangan boʻlib, bu iste'mol sektori mintaqa sanoat tuzilmasida muhim oʻsish drayveriga aylanganini koʻrsatadi. 2021 yilda ishlab chiqarish hajmining 27 490,4 mlrd soʻmdan 25 823,9 mlrd soʻmga qisqarishi qisqa muddatli tashqi va ichki omillar taʼsirini aks ettiradi, biroq 2022 yilda 36 563,5 mlrd soʻmga va 2023 yilda 51 506,1 mlrd soʻmga keskin oshishi tarkibiy tiklanish va ishlab chiqarish quvvatlarining kengayganidan dalolat beradi. 2023 yilda 2022 yilga nisbatan 40,9 foizlik oʻsish mintaqada ichki talab va ishlab chiqarish kooperatsiyasining mustahkamlanayotganini koʻrsatadi.

Hududlar kesimida tahlil ishlab chiqarishning yuqori darajada hududiy konsentratsiyalashganligini tasdiqlaydi. 2023 yilda Asaka tumani 41 001,8 mlrd soʻm ishlab chiqarib, viloyat umumiy hajmining qariyb 79,6 foizini shakllantirgan. 2017 yilda ushbu koʻrsatkich 6 043,2 mlrd soʻm boʻlganini inobatga olsak, 6 yil ichida 6,8 baravarlik oʻsish kuzatilgan. Bu sanoatning klasterlashgan model asosida rivojlanayotganini va ishlab chiqarishning yirik sanoat markazlarida jamlanganini anglatadi. Xoʻjaobod tumani 2017 yildagi 275,8 mlrd soʻmdan 2023 yilda 2 483,7 mlrd soʻmga yetib, 9 baravarga oshgan; Jalaquduq tumani 186,5 mlrd soʻmdan 817,1 mlrd soʻmga; Izboskan tumani esa 175,3 mlrd soʻmdan 697,0 mlrd soʻmga yetgan. Bu hududlarda iste'mol sanoati segmentlari bosqichma-bosqich kengayib borayotganini koʻrsatadi, biroq ularning umumiy ulushi hali ham cheklangan.

4-jadval.

Andijon viloyatida sanoatning iqtisodiy tuzilmadagi roli va tarkibiy transformatsiya koʻrsatkichlari (foizda)¹

Yil	Sanoat YHM nisbati	Investitsiya YHM nisbati	Ishlab chiqarish sanoati ulushi	Iste'mol mollari Sanoat
2017	57,9	13,0	96,3	74,3
2018	86,8	14,9	97,9	77,9
2019	83,5	18,8	97,6	79,0
2020	82,5	21,8	98,0	75,6
2021	70,7	22,0	97,6	71,9
2022	83,3	22,0	97,9	67,3
2023	91,8	23,2	98,1	69,8
2024	97,4	30,8	97,2	–

Sanoatning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2017 yildagi 57,9 foizdan 2024 yilda 97,4 foizga yetgani mintaqa iqtisodiy tuzilmasida sanoat sektorining mutlaq ustunlikka ega boʻlib borayotganini koʻrsatadi. Ayniqsa, 2022–2024 yillarda sanoatning YHMga nisbatan ulushining 83,3 foizdan 97,4 foizgacha oshishi iqtisodiy oʻsishning sanoatga tayangan model asosida shakllanayotganini bildiradi. Bunday tezkor sanoatlashtirish jarayoni qisqa muddatda yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlasada, iqtisodiy tizimning bir tarmoqqa yuqori darajada bogʻlanib qolishi strukturaviy

¹ Muallif ishlanmasi

barqarorlik nuqtai nazaridan muayyan risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shu bois optimal tuzilmani shakllantirish jarayonida sanoatning ichki diversifikatsiyasi va boshqa tarmoqlar bilan muvozanatli integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, investitsiyalarning YHMDagi ulushi 2017 yildagi 13,0 foizdan 2024 yilda 30,8 foizga yetgani kapital qo'yilmalar mintaqqa iqtisodiy o'sishining asosiy determinanti ekanini tasdiqlaydi. 2022 yildan boshlab investitsiya intensivligining keskin oshishi sanoat ishlab chiqarishining tezlashuvi bilan bir vaqtda kuzatilmoqda. Bu kapitalning yuqori multiplikativ ta'sirini va investitsiya samaradorligining nisbatan yuqori darajada shakllanganini anglatadi. Biroq investitsiya ulushining yuqori bo'lishi doimiy ravishda ishlab chiqarish samaradorligi bilan qo'llab-quvvatlanmasa, resurslar samarasiz taqsimlanishi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Demak, investitsiya siyosatini optimal tarmoqlar kesimida yo'naltirish va innovatsion segmentlarga ustuvorlik berish zarur.

Uchinchidan, ishlab chiqarish sanoatining umumiy sanoat tarkibidagi ulushi butun davr davomida 96–98 foiz oralig'ida saqlanib qolgan bo'lib, bu sanoatning yuqori konsentratsiyalashgan model asosida rivojlanayotganini ko'rsatadi. Iste'mol mollari ishlab chiqarishining sanoat hajmidagi ulushi 2017 yildagi 74,3 foizdan 2022 yilda 67,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, 2023 yilda 69,8 foiz darajasida shakllangan. Bu ishlab chiqarish tarkibida oraliq va investitsion mahsulotlar ulushi kengayib borayotganini bildiradi. Umuman olganda, 4-jadval natijalari Andijon viloyatida sanoatning iqtisodiy tizimdagi roli sezilarli darajada kuchayganini, investitsiya faolligi yuqori darajada ekanini va tarkibiy transformatsiya jarayoni davom etayotganini ko'rsatadi. Optimal tuzilmani ta'minlash uchun kelgusida yuqori texnologiyali, eksportbop va innovatsion segmentlar ulushini oshirish, shuningdek, tarmoqlararo muvozanatni mustahkamlash ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari Andijon viloyatida 2017–2024 yillar davomida mintaqaviy iqtisodiyot tuzilmasida sezilarli strukturaviy siljishlar yuz berganini ko'rsatadi. Mazkur davrda yalpi hududiy mahsulot 22 904,2 mlrd so'mdan 93 026,3 mlrd so'mga yetib, 4,1 baravarga oshgan bo'lsa, sanoat mahsuloti hajmi 13 269,8 mlrd so'mdan 90 626,6 mlrd so'mga ko'tarilib, 6,8 baravarlik o'sishni namoyon etgan. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi esa 2 986,0 mlrd so'mdan 28 668,0 mlrd so'mga yetib, 9,6 baravarga oshgan. Bu raqamlar mintaqqa iqtisodiyotida sanoat va investitsiya omillari hal qiluvchi rol o'ynayotganini tasdiqlaydi.

Birinchidan, sanoatning YHMDagi ulushining 57,9 foizdan 97,4 foizgacha oshishi iqtisodiy o'sishning sanoatga tayanayotgan model asosida shakllanganini ko'rsatadi. Bu jarayon qisqa muddatda yuqori iqtisodiy natijalarni ta'minlasa-da, iqtisodiy tuzilmaning bir tarmoqqa yuqori darajada bog'lanib qolish xavfini yuzaga keltiradi. Ilmiy taklif sifatida sanoat ichida yuqori texnologiyali, eksportbop va innovatsion segmentlar ulushini oshirishga qaratilgan strukturaviy diversifikatsiya modeli ishlab chiqilishi lozim. Amaliy jihatdan esa kimyo, elektrotexnika va mashinasozlik kabi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlash orqali sanoat tarkibining murakkablik darajasini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, investitsiyalarning YHMdagi ulushi 13,0 foizdan 30,8 foizga yetgani kapital qo'yilmalar iqtisodiy kengayishning asosiy drayveri ekanini ko'rsatadi. 2022–2024 yillarda investitsiya hajmining keskin oshishi sanoat ishlab chiqarishining ham tezlashgan o'sishi bilan mos keladi. Ilmiy jihatdan bu investitsiya va ishlab chiqarish o'rtasida yuqori elastiklik mavjudligini anglatadi. Shu bois investitsiya siyosatini tarmoqlararo optimal nisbatlar asosida shakllantirish, resurslarni yuqori qo'shilgan qiymatli segmentlarga yo'naltirish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish zarur.

Uchinchidan, iste'mol mollari ishlab chiqarishining sanoat hajmidagi ulushi 2017 yildagi 74,3 foizdan 2022 yilda 67,3 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, sanoatning yuqori konsentratsiyalashgan modeli saqlanib qolmoqda. Bu mintaqa iqtisodiyotida tarkibiy transformatsiya boshlanganini bildiradi, biroq ichki diversifikatsiya darajasi yetarli emas. Amaliy tavsiya sifatida kichik va o'rta sanoat zonalarini rivojlantirish, hududlar kesimida investitsion muvozanatni ta'minlash hamda kooperatsion aloqalarni chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, mintaqaviy iqtisodiyotning optimal tuzilmasini shakllantirishda kompleks modellashtirish yondashuvlari – strukturaviy tahlil, input-output modeli, ko'p omilli regressiya va prognozlash metodlari – integratsiyalashgan holda qo'llanilishi lozim. Ilmiy taklif sifatida mintaqa uchun integrallashgan strukturaviy indeks ishlab chiqish va u asosida uzoq muddatli rivojlanish ssenariylarini shakllantirish tavsiya etiladi. Uzoq muddatli barqaror o'sish uchun iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyasi, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish hamda inson kapitalini rivojlantirish ustuvor strategik yo'nalish sifatida belgilanishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Bank. 2022. World Development Report: Structural Transformation and Productivity Growth. Washington, DC.
2. UNIDO. 2021. Industrial Development Report: Industrialization in the Digital Age. Vienna.
3. OECD. 2020. Regional Outlook: Structural Change and Regional Growth. Paris.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF–60-son “2022–2026-yillardagi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
5. United Nations. 2015. Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. New York.
6. Lewis, W. A. 1954. Economic Development with Unlimited Supplies of Labour. Manchester School of Economic and Social Studies, Vol. 22. Manchester University Press.
7. Kuznets, S. 1966. Modern Economic Growth: Rate, Structure, and Spread. Yale University Press, New Haven.
8. Chenery, H., & Syrquin, M. 1975. Patterns of Development, 1950–1970. Oxford University Press, London.

9. Pasinetti, L. L. 1981. Structural Change and Economic Growth: A Theoretical Essay on the Dynamics of the Wealth of Nations. Cambridge University Press, Cambridge.
10. Leontief, W. 1986. Input-Output Economics. Oxford University Press, New York.
11. Porter, M. E. 1990. The Competitive Advantage of Nations. Free Press, New York.
12. Aghion, P., & Howitt, P. 1998. Endogenous Growth Theory. MIT Press, Cambridge.
13. Hausmann, R., & Hidalgo, C. A. 2014. The Atlas of Economic Complexity. MIT Press, Cambridge.
14. Rodrik, D. 2004. Industrial Policy for the Twenty-First Century. Harvard University Press, Cambridge.
15. Imbs, J., & Wacziarg, R. 2003. Stages of Diversification. American Economic Review, Vol. 93(1). American Economic Association.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:
Ingliz tili muharriri:
Rus tili muharriri:
Musahhih:
Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Karimova Shirin Zoxid qizi
Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. FOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621